

OLIV TA'LIMDA FALSAFA FANINI O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Mamatov Obidxon Vaqqosovich

*University of Business of Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi dotsenti,
falsafa fanlari nomzodi*

E-mail: mamatovofficial@gmail.com Tel: +99894 505 50 60

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'limda falsafa fanini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanishning pedagogik samaradorligi tahlil qilinadi. Falsafa fani talabalarda tanqidiy tafakkur, mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish, bahs-munozara yuritish va ijtimoiy hodisalarga ongli munosabat bildirish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli uni o'qitishda an'anaviy ma'ruza usullari bilan bir qatorda interaktiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanish zarur hisoblanadi. Maqolada bahs-munozara, aqliy hujum, keys-stadi, muammoli ta'lim, kichik guruhlarda ishlash, debat va klaster kabi metodlarning falsafa darslaridagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: falsafa, interaktiv metod, tanqidiy tafakkur, muammoli ta'lim, debat, keys-stadi, aqliy hujum, pedagogik samaradorlik.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ФИЛОСОФИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация. В данной статье анализируется педагогическая эффективность использования интерактивных методов в преподавании философии в высшем образовании. Философия имеет важное значение в формировании у студентов навыков критического мышления, самостоятельного мышления, логического анализа, ведения дискуссий и осознанного отношения к социальным явлениям. Поэтому при его преподавании наряду с традиционными лекционными методами необходимо использовать интерактивные образовательные технологии. В статье рассматривается роль таких методов, как дискуссия, мозговой штурм, кейс-стади, проблемное обучение, работа в малых группах, дебаты и кластер на уроках философии.

Ключевые слова: философия, интерактивный метод, критическое мышление, проблемное обучение, дебаты, кейс-стади, мозговой штурм, педагогическая эффективность.

EFFECTIVENESS OF USING INTERACTIVE METHODS IN TEACHING PHILOSOPHY IN HIGHER EDUCATION

Abstract. This article analyzes the pedagogical effectiveness of using interactive methods in teaching philosophy in higher education. The subject of philosophy is of great importance in developing students' skills in critical thinking, independent thinking, logical analysis, debate, and a conscious attitude toward social phenomena. Therefore, it is necessary to use interactive educational technologies in its teaching alongside traditional lecture

methods. The article highlights the role of methods such as debate, brainstorming, case study, problem-based learning, small group work, debate, and cluster in philosophy lessons.

Keywords: *philosophy, interactive method, critical thinking, problem-based learning, debate, case study, brainstorming, pedagogical efficiency.*

KIRISH

Oliy ta'lim tizimida falsafa fanini o'qitish talabalarni faqat nazariy bilimlar bilan qurollantirish emas, balki ularda mustaqil fikrlash, voqelikni tahlil qilish, hayotiy hodisalarga ongli munosabat bildirish, ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini anglash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Falsafa inson, jamiyat, borliq, tafakkur, qadriyat, axloq, bilim va taraqqiyot kabi murakkab masalalarni o'rganadigan fan bo'lgani uchun uni an'anaviy ma'ruza shaklida bir tomonlama bayon qilish har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Chunki talaba falsafiy bilimni tayyor qoida sifatida yodlab olmasligi, aksincha uni tushunishi, muhokama qilishi, o'z hayotiy tajribasi bilan bog'lashi va shaxsiy xulosaga kelishi zarur. Shu jihatdan interaktiv metodlardan foydalanish falsafa fanining mazmuniga juda mos keladi. Bugungi ta'lim jarayonida talaba bilim oluvchi passiv tinglovchi emas, balki o'quv jarayonining faol ishtirokchisi sifatida qaralmoqda. Falsafa darslarida ham talabani fikrlashga undash, savol berishga o'rgatish, muammoga turli nuqtai nazardan yondashishga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Interaktiv metodlar aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Bu metodlar orqali talaba o'qituvchi bilan, guruhdoshlari bilan, o'rganilayotgan mavzu bilan faol muloqotga kirishadi. Natijada dars jarayoni jonlanadi, falsafiy tushunchalar hayotiy mazmun kasb etadi, talabalar mavzuni chuqurroq anglay boshlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda oliy ta'limda falsafa fanini o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlarda interaktiv ta'lim, tanqidiy fikrlash, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Xususan, U. Xolms va F. Myao tomonidan YUNESKO doirasida tayyorlangan tadqiqotlarda generativ sun'iy intellektning ta'lim jarayoniga kirib kelishi, uni insonparvarlik tamoyillari asosida qo'llash, ta'lim oluvchining mustaqil fikrlashi va akademik halolligini saqlash masalalari yoritilgan. Ushbu yondashuv falsafa fanini

o'qitishda ham muhim ahamiyatga ega, chunki falsafa darslarida sun'iy intellektdan faqat tayyor javob olish vositasi sifatida emas, balki muammo qo'yish, bahs-munozara tashkil etish, qarama-qarshi qarashlarni solishtirish va tanqidiy tahlil qilish vositasi sifatida foydalanish mumkin [1]. Oliy ta'limda talabalar tafakkurini rivojlantirish masalasida Matias Bukertning tadqiqoti ham muhim ilmiy manba hisoblanadi. Muallif oliy ta'lim tizimida kreativ va tanqidiy fikrlashni baholash amaliyotini tahlil qilib, ko'plab mamlakatlarda bu ko'nikmalar ta'lim siyosati va malaka talablarida muhim deb belgilansa-da, ularni baholash mexanizmlari yetarlicha tizimlashmaganini ko'rsatadi [2]. Bu fikr falsafa fanini o'qitish metodikasi uchun ham dolzarbdir. Chunki falsafa darslarida talabaning faqat nazariy bilimni emas, balki savol qo'yish, dalil keltirish, muammoni tahlil qilish, bahsda ishtirok etish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini ham baholash zarur.

Raqamli pedagogika va sun'iy intellektni ta'limga joriy etish bo'yicha M. Perkins, L. Furze, J. Roe va J. Makvo tomonidan ishlab chiqilgan yondashuv ham e'tiborga loyiq. Mazkur yondashuvda generativ sun'iy intellektdan baholash jarayonida qanday darajada foydalanish mumkinligi bosqichma-bosqich ko'rsatib beriladi [3]. Falsafa fanini o'qitishda bu yondashuv talabalarning mustaqil fikrlashi, mualliflik pozitsiyasi va akademik halolligini saqlashda muhim metodik asos bo'la oladi. Masalan, talaba falsafiy esse yozishda AI vositasidan faqat g'oya shakllantirish yoki manbalarni solishtirish uchun foydalanishi, yakuniy xulosani esa o'zi mustaqil ishlab chiqishi lozim.

O'zbekiston oliy ta'limi sharoitida falsafa fanini o'qitish metodikasiga oid so'nggi manbalardan biri K.M. Ismadiyrov kredit-modul tizimida falsafa fanini o'qitishning pedagogik xususiyatlari, ma'ruza, seminar va mustaqil ta'limni tashkil etish masalalarini yoritadi [4]. Bu manba mavzu uchun ahamiyatli, chunki interaktiv metodlar aynan kredit-modul tizimida talabaning mustaqil ishlashi, seminar mashg'ulotlaridagi faolligi va baholash jarayonidagi ishtirokini kuchaytiradi. Falsafa fanini o'qitishda innovatsiya va kreativlik masalalari I.K. Mahamadiyrovich falsafa fanini o'qitish ko'pincha an'anaviy ma'ruza va kitobdan o'qish bilan cheklanib qolishini, bu esa talabalarning fanga qiziqishini pasaytirishi mumkinligini ta'kidlaydi [5]. Ushbu fikr interaktiv metodlardan foydalanish

zaruratini asoslashda juda muhimdir. Chunki falsafa fanida talaba mavzuni tayyor bilim sifatida emas, balki o'z fikri, hayotiy tajribasi va mantiqiy tahlili orqali anglagandagina chuqur o'zlashtiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Falsafa fanini o'qitishda interaktiv metodlarning samaradorligi, avvalo, ularning talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyati bilan belgilanadi. Tanqidiy tafakkur deganda mavjud fikrni shunchaki inkor qilish emas, balki har qanday g'oyani asoslash, dalillar bilan tekshirish, qarama-qarshi fikrlarni solishtirish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati tushuniladi. Masalan, inson erkinligi, axloqiy tanlov, adolat, haqiqat, jamiyat taraqqiyoti kabi mavzularni o'rganishda talabalar turli savollarga duch keladi. Interaktiv usullar yordamida ular bu savollarga tayyor javob izlamaydi, balki masalaning mohiyatini anglashga harakat qiladi. Falsafiy bilimlar ko'pincha mavhum tushunchalar orqali ifodalanadi. Borliq, ong, materiya, ruh, qadriyat, mohiyat, sababiyat, zaruriyat, tasodif kabi tushunchalarni oddiy izoh bilan tushuntirish yetarli bo'lmasligi mumkin. Interaktiv metodlardan foydalanilganda esa bu tushunchalar amaliy misollar, savol-javoblar, muammoli vaziyatlar va guruhviy muhokamalar orqali ochib beriladi. Talaba mavhum tushunchani real hayot bilan bog'laydi. Masalan, adolat tushunchasini faqat ta'riflash emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy tenglik, huquqiy madaniyat, ta'lim imkoniyatlari, mehnat munosabatlari bilan bog'lab tahlil qilish mumkin.

Interaktiv metodlarning muhim jihatlaridan biri shundaki, ular darsda muloqot madaniyatini shakllantiradi. Falsafa fani o'z mohiyatiga ko'ra savol berish, bahslashish, fikr almashish va mantiqiy xulosa chiqarishga asoslanadi. Talabalar bahs-munozara jarayonida o'z fikrini aniq ifodalash, boshqalarning qarashlarini tinglash, ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish, dalil keltirish va xulosani asoslashni o'rganadi [6]. Bu ko'nikmalar nafaqat falsafa darslarida, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatda ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, pedagog, huquqshunos, jurnalist, menejer, ijtimoiy soha mutaxassisi bo'ladigan talabalar uchun bunday malakalar zarurdir. Oliy ta'limda falsafa fanini o'qitishda eng ko'p qo'llanadigan interaktiv metodlardan biri bahs-munozara metodidir. Bu metod talabalarning mavzuga nisbatan faol munosabatini shakllantiradi. Masalan, ilmiy-texnik

taraqqiyot insoniyat baxtiga xizmat qiladimi yoki yangi muammolarni keltirib chiqaradimi, degan mavzuda munozara tashkil etish mumkin. Bir guruh talabalar texnologik taraqqiyotning ijobiy tomonlarini, boshqa guruh esa uning salbiy oqibatlarini asoslaydi. Bunday yondashuv talabalarning bir tomonlama fikrlashdan chiqib, masalani ko'p qirrali tahlil qilishiga yordam beradi.

Muammoli ta'lim metodi falsafa fanida ayniqsa samarali hisoblanadi. Chunki falsafaning o'zi ko'p jihatdan muammolarni qo'yish va ularga javob izlash jarayonidir. O'qituvchi dars boshida muammoli savol yoki vaziyatni taqdim etadi. Talabalar esa shu muammo yuzasidan o'z fikrlarini bildiradi, farazlar ilgari suradi, dalillar keltiradi. Masalan, inson taqdirini o'zi yaratadimi yoki tashqi sharoitlar uning hayot yo'lini belgilaydimi, degan savol talabalarni chuqur fikrlashga undaydi. Bu savol orqali erkinlik va zaruriyat, shaxs va jamiyat, tanlov va mas'uliyat kabi falsafiy kategoriyalarni tahlil qilish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Keys-stadi metodi ham falsafa darslarida keng imkoniyatlarga ega. Bu metodda talabalar aniq hayotiy vaziyatni tahlil qiladi va unga nisbatan falsafiy baho beradi. Masalan, axloqiy tanlov bilan bog'liq holat, ijtimoiy adolat masalasi, ekologik mas'uliyat, sun'iy intellektdan foydalanishning axloqiy chegaralari kabi vaziyatlar keys sifatida berilishi mumkin. Talabalar bu vaziyatni guruhda muhokama qiladi, muammoning sabablarini aniqlaydi, yechim variantlarini taklif etadi. Natijada ular falsafiy nazariyalarni hayotiy amaliyot bilan bog'lashni o'rganadi. Aqliy hujum metodi talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda foydali vositadir. Bu metodda talabalar ma'lum bir savol yuzasidan imkon qadar ko'proq fikr bildiradi. Dastlab fikrlar tanqid qilinmaydi, keyin esa ular tahlil qilinadi va umumlashtiriladi [7]. Masalan, zamonaviy jamiyatda inson ma'naviyatiga ta'sir qiluvchi omillar nimalardan iborat, degan savol asosida aqliy hujum tashkil etish mumkin. Talabalar oila, ta'lim, ommaviy axborot vositalari, internet, ijtimoiy tarmoqlar, milliy qadriyatlar, global madaniyat kabi ko'plab omillarni sanab o'tadi. Keyingi bosqichda bu omillar falsafiy jihatdan tahlil qilinadi.

Klaster metodidan foydalanish falsafiy tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatishda yaxshi natija beradi. Falsafa fanida tushunchalar bir-biri bilan uzviy

bog'liq bo'ladi. Masalan, inson tushunchasi atrofida ong, tafakkur, mehnat, til, madaniyat, jamiyat, qadriyat, erkinlik, mas'uliyat kabi tushunchalarni joylashtirish mumkin. Talabalar klaster tuzish orqali mavzuni yaxlit tizim sifatida ko'ra boshlaydi. Bu esa ularning bilimni parcha-parcha emas, balki mantiqiy bog'liqlikda o'zlashtirishiga yordam beradi. Falsafa darslarida kichik guruhlarda ishlash metodi ham samarali hisoblanadi. Bunda talabalar bir necha guruhlariga bo'linadi va har bir guruhga alohida topshiriq beriladi. Masalan, bir guruh qadimgi Sharq falsafasining asosiy g'oyalarini, ikkinchi guruh qadimgi Yunon falsafasining xususiyatlarini, uchinchi guruh esa ularning o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilishi mumkin. Guruhiy ish jarayonida talabalar o'zaro hamkorlik qiladi, vazifalarni taqsimlaydi, bir-birining fikrini to'ldiradi. Bu esa jamoada ishlash, mas'uliyatni his qilish va umumiy natijaga erishish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Rolli o'yinlar va sahnalashtirish metodlari falsafiy mavzularni jonli va qiziqarli o'rganishga yordam beradi. Masalan, talabalar Sokrat, Aflotun, Aristotel, Forobiy, Ibn Sino, Kant yoki boshqa mutafakkirlar qarashlarini ifodalovchi rollarni bajarishi mumkin. Bunday mashg'ulotlarda talabalar faqat mutafakkir haqida ma'lumot aytib bermaydi, balki uning fikrlash uslubini tushunishga harakat qiladi. Bu metod falsafa tarixini o'rganishda, turli falsafiy maktablar o'rtasidagi farqni anglashda va talabalarda tarixiy-falsafiy tafakkurni shakllantirishda foydalidir. Debat texnologiyasi falsafa fanida alohida o'rin tutadi. Debat talabalardan mavzuni chuqur o'rganishni, dalillar tayyorlashni, qarshi fikrga javob berishni va o'z nuqtai nazarini himoya qilishni talab etadi. Masalan, inson tabiatdan yaxshimi yoki jamiyat ta'sirida shakllanadimi, ilm-fan ma'naviyatdan ustun bo'lishi mumkinmi, global madaniyat milliy qadriyatlarga xavf tug'diradimi, kabi mavzularda debat o'tkazish mumkin. Bunday mashg'ulotlar talabalarni mustaqil izlanishga undaydi va ularda mantiqiy fikrlash madaniyatini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'limda falsafa fanini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Bu metodlar talabalarni faol fikrlashga, muammolarni tahlil qilishga, o'z nuqtai nazarini asoslashga, boshqalar bilan muloqot qilishga va mustaqil xulosa chiqarishga

o'rgatadi. Falsafa fanining mohiyati ham aynan fikrlash, anglash, baholash va xulosa chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgani uchun interaktiv yondashuv uning mazmunini chuqurroq ochib beradi. To'g'ri tanlangan va maqsadga muvofiq qo'llangan interaktiv metodlar falsafa darslarini qiziqarli, mazmunli va samarali qiladi. Natijada talabalarda nafaqat falsafiy bilimlar, balki tanqidiy tafakkur, ma'naviy yetuklik, ijtimoiy faollik va kasbiy kompetensiyalar ham shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Miao F., Holmes W. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023.
2. Bouckaert M. The assessment of students' creative and critical thinking skills in higher education across OECD countries: A review of policies and related practices // OECD Education Working Papers. 2023. No. 293.
3. Perkins M., Furze L., Roe J., MacVaugh J. The AI Assessment Scale: A Framework for Ethical Integration of Generative AI in Educational Assessment. 2023.
4. Sharples M. Towards Social Generative AI for Education: Theory, Practices and Ethics. 2023.
5. Bhuttah T. M. et al. Enhancing student critical thinking and learning outcomes through innovative pedagogical approaches. 2024.
6. Ismadiyrov K. M. Kredit-modul tizimida falsafa fanini o'qitishning pedagogik xususiyatlari va metodikasi // CyberLeninka. 2024.
7. Mahamadiyrovich I. K. Talabalarga falsafa fanini o'qitishda innovatsiya va kreativlik // CyberLeninka. 2025.
8. Tashmetov T. X. Milliy g'oya fanini interfaol usullar asosida o'qitish davr talabi // CyberLeninka. 2022.